ERTA VA XAVFSIZ INKLYUZIYA HAMDA UNING UZLIKSIZLIGINI TA'MINLASH IMKONIYATLARI

ChDPU Pedagogika fakulteti, Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) **Sh.X.Kobilova**
ORCID iD 0009-0001-4091-1840
kabilovashaxnoza4@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni erta yoshdan inklyuziv ta'limga jalb etish va xavfsiz o'quv muhitini yaratishning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Dastlabki sensitiv davrlarda amalga oshiriladigan korreksion-pedagogik ta'sirning ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish, kompensatorlik imkoniyatlarini rivojlantirish va ijtimoiylashuvni kuchaytirishdagi ahamiyati asoslangan. Erta inklyuziyaning uzluksizligi hamda jismoniy, psixoemotsional va raqamli xavfsiz muhitni ta'minlash alohida ehtiyojli bolalarning mustaqil hayotga tayyorgarligi, hayotiy kompetensiyalari va kasbiy bandligini ta'minlashning muhim sharti yoritilgan.

Kalit so'zlar: Erta inklyuziya, uzluksiz inklyuziv ta'lim, xavfsiz o'quv muhiti, korreksion-pedagogik ta'sir, kompensatorlik imkoniyatlari, sensitiv davr, erta parvarish, ijtimoiylashuv, universal ta'lim dizayni, kasbiy bandlik.

Аннотация. В статье проанализированы теоретико-практические основы раннего вовлечения детей с ограниченными возможностями здоровья в инклюзивное образование и создания безопасной образовательной среды. Обосновано значение коррекционно-педагогического воздействия, осуществляемого в ранние сензитивные периоды развития, в предупреждении вторичных нарушений, развитии компенсаторных возможностей и усилении процесса социализации. Показано, что обеспечение непрерывности ранней инклюзии, а также физически, психоэмоционально и цифрово безопасной образовательной среды является важным условием подготовки детей с особыми образовательными потребностями к самостоятельной жизни, формирования жизненных компетенций и их последующей профессиональной занятости.

Ключевые слова: ранняя инклюзия, непрерывное инклюзивное образование, безопасная образовательная среда, коррекционно-педагогическое воздействие, компенсаторные возможности, сензитивный период, раннее сопровождение, социализация, универсальный дизайн обучения (Universal Design for Learning, UDL), профессиональная занятость.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of early inclusion of children with disabilities in inclusive education and the creation of a safe learning environment. It substantiates the importance of corrective and pedagogical intervention during the early sensitive periods of child development in preventing secondary impairments, enhancing compensatory abilities, and strengthening socialization. The study highlights that ensuring the continuity of early inclusive education together with a physically, psycho-emotionally, and digitally safe educational environment is a key prerequisite for preparing children with special educational needs for independent living, developing essential life competencies, and promoting their future employment.

Keywords: early inclusion, continuous inclusive education, safe learning environment, corrective and pedagogical intervention, compensatory abilities, sensitive period, early intervention, socialization, Universal Design for Learning (UDL), employment.

Bola rivojlanishining dastlabki senzitiv davrlarida amalga oshiriladigan tizimli korreksion-pedagogik ta'sir undagi mavjud ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish va kompensatorlik imkoniyatlarini faollashtirish imkonini beradi.


Xalqaro tajriba va barqaror rivojlanish maqsadlari mezonlari ham inklyuziv ta'limni aynan erta yoshdan tashkil etish va uning uzliksizligini ta'minlash shaxs kapitalini oshirishning eng samarali omili ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonda umumta'lim maskanida maxsus loyihalashtirilgan «xavfsiz o'quv muhiti»ning mavjudligi bolaning har tomonlama himoyalanishi va barqaror kamol topishini kafolatlaydi.

Jismoniy, psixo-emotsional va raqamli xavf-xatarlardan holi bo'lgan muhitgina alohida ehtiyojli o'quvchilarning maktab hayotiga faol moslashishi uchun bosh didaktik platforma bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, erta inklyuziya va xavfsiz muhit sinergiyasi bolaning ruhiy jarohatlarsiz, sog'lom ijtimoiy makonda o'z o'rnini topishini ta'minlaydi. Mazkur ikki omilning uyg'unligi imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvini statik jarayondan dinamik va xavfsiz rivojlanish ekotizimiga transformatsiya qiluvchi bosh prognostik kuchdir.

Ilm-fan tarixiga nazar tashlasak, bolalarni erta yoshdan ajratmasdan birgalikda o'qitish va ularning ehtiyojlarini tizimli qondirish g'oyalari jahon hamda milliy pedagogika namoyandalari tomonidan izchil himoya qilib kelingan. L.S.Vigotskiy o'zining defektologik nazariyasida imkoniyati cheklangan bolalarni erta yoshdan boshlab sog'lom tengdoshlari davrasiga jalb etish ularning «yaqin rivojlanish zonasi»ni kengaytirishini ilmiy asoslagan.[4] Shuningdek, A.Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham bolaning ijtimoiylashuvi va bilim olishi uchun dastlab uning xavfsizlikka bo'lgan fundamental ehtiyoji qondirilishi shartligini qat'iy ta'kidlaydi.[86] Sh.Taxtayarovaning tadqiqotlari esa nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarni erta bosqichda tashxislash va logopedik mashg'ulotlarni modellashtirish orqali erta inklyuzivlashtirish qonuniyatlarini ochib beradi. [6] Ushbu fikrlarni davom ettirgan holda, D.Shukurova inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish mezonlarini aynan muhitning qulayligi va erta pedagogik kuzatuv tizimi bilan bevosita bog'laydi. Demak, olimlarning qarashlari erta tizimli korreksiya va xavfsiz muhit tuzilmasi bola shaxsini ijtimoiylashtirishning bosh didaktik sharti ekanligini to'liq tasdiqlaydi.[3]

Erta inklyuziya sharoitida xavfsiz o'quv muhitini yaratish jarayoni quyidagi uchta asosiy tarkibiy komponent va uning integratsiyasini taqozo etiladi.

1-rasm. Erta inklyuziya sharoitida xavfsiz o'quv muhitini yaratishning uch



komponentli yondashuvi

Jismoniy xavfsizlik umumta'lim maktablarida panduslar, taktil yo'laklar va universal ta'lim dizayni tamoyillariga mos jihozlar mavjudligini anglatib, bolaning hayot faoliyati betalofatligini ta'minlaydi. Psixo-emotsional xavfsizlik esa sinfda kamsitish, ajratish va bulling kabi salbiy ijtimoiy hodisalarning oldini oluvchi sog'lom ma'naviy iqlimni qaror toptirishni ko'zda tutadi. Raqamli-kommunikativ komponent esa alohida ehtiyojli bolalar uchun zarur assistiv texnologiyalar va multimodal axborot almashinuvi orqali to'siqsiz muloqot makonini yaratadi. Ushbu uchta muhim jihatning muvozanatda saqlanishi imkoniyati cheklangan o'quvchilarning maktab ichki muhiti tomonidan to'laqonli qabul qilinishiga xizmat qiladi. Mazkur kompleks himoya tizimi bo'lg'usi ijtimoiy to'siqlarni prognostik kamaytirish va bolaning ichki kompensatorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishning bosh mexanizmidir.

Milliy ta'lim amaliyotida erta inklyuziyani muvaffaqiyatli joriy etish maqsadida U.Fayzieva tomonidan ilgari surilgan innovatsion klaster modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu model doirasida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari, tibbiy-pedagogik komissiyalar hamda oilalar o'rtasida tizimli sinergetik hamkorlik yo'lga qo'yiladi. [1] M.Sattarova ta'kidlaganidek, mazkur klaster tizimining samarali ishlashi bevosita o'qituvchilarning inklyuziv kompetentligi darajasiga va ularning kasbiy mahoratiga bog'liqdir.[2] Faqatgina yuksak kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagog kadrlargina bolalarning individual ehtiyojlarini to'g'ri baholab, differensial dars modellarini yarata oladilar. Oila va maktab hamkorligining bunday mustahkam poydevori alohida ehtiyojli o'quvchini nafaqat akademik fanlarni o'zlashtirishga, balki mustaqil hayot ko'nikmalarini egallashga undaydi. Klasterli yondashuv ta'lim sub'ektlarining kuch va imkoniyatlarini birlashtirish orqali bolaning shaxsiy rivojlanish traektoriyasini xavfsiz koordinatsiya qilishga yordam beradi. Natijada, ta'lim tizimi ma'muriy qoliplardan voz kechib, bolaga yo'naltirilgan moslashuvchan ijtimoiylashuv poligoniga aylanadi.

Erta inklyuziya va xavfsiz o'quv muhiti imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga moslashishini kafolatlovchi eng bosh prognostik faktordir. Mazkur ikki omilning tizimli uyg'unligi alohida ehtiyojli o'quvchilarning sifatli ta'lim olishiga va ularning kamsitilishlardan butunlay himoyalanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda kadrlar kompetentligini oshirish, klasterli hamkorlikni kuchaytirish va muhit qulayligi indikatorlarini muntazam baholash ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Zero, bolaning erta yoshdan sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda, xavfsiz muhitda kamol topishi adolatli va insonparvar jamiyat barpo etishning bosh garovidir. Muvaffaqiyatli loyihalashtirilgan bunday ekotizim har bir shaxsning ijtimoiy kapitalini va hayotiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim, bu faqatgina imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy ta'lim muassasalariga joylashtirish emas, balki ularning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim muhitini yaratish, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Shu jihatdan, inklyuziv ta'limning uzluksizligi mazkur bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, mustaqil hayot tarziga qadam qo'yishi va teng huquqli fuqaro sifatida shakllanishi uchun zarur shartlardan biridir.

Inklyuziv ta'limning uzluksizligi bolalarda barqaror ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish uchun asos yaratadi. Ushbu jarayonda ta'lim muassasalarining uyg'unligi, metodik yondashuvning muvofiqlashganligi, mutaxassislarning malakasi, jamiyatning keng qatlamida ijobiy munosabat shakllanishi alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim faqat maktab yoshida emas, balki maktabgacha va o'rta-maxsus ta'lim bosqichlarida ham joriy etilmoqda, bu esa uning

uzluksizligini ta’minlash imkonini beradi. Ta’limdagi uzviylik va uyg‘unlik imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanish traektoriyasini barqarorlashtiradi, individual potensialini to‘la ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, inklyuziv ta’limning uzluksiz amalga oshirilishi nafaqat bolaning o‘z hayotini sifatli tashkil etishini ta’minlaydi, balki butun jamiyatda bag‘rikenglik, hamdardlik, jamoaviylik, inson huquqlariga hurmat kabi universal qadriyatlarni mustahkamlaydi. Bu esa keng ma’noda fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, inklyuziv ta’lim masalasini faqat pedagogik yoki tibbiy muammo sifatida emas, balki umumjamiyat darajasida hal etilishi lozim bo‘lgan strategik vazifa sifatida ko‘rish zarur.

Imkoniyati cheklangan bolalarni erta kompleks parvarish qilish nafaqat sog‘liqni saqlash, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va maxsus ta’lim tizimining hamkorlikdagi integratsiyasini talab etadigan murakkab va uzoq muddatli xizmatlar tizimidir. Erta parvarish bolaning o‘zinigina emas, balki butun oila a’zolarini qamrab olgan holda, muvofiqlashtirilgan va kompleks yondashuvga asoslangan faoliyat sifatida tashkil etiladi. Bu esa turli sohalar mutaxassislaridan iborat “jamoa” tomonidan amalga oshirilishi lozim.[5]

Erta parvarish qilish tizimi imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va ta’limga tayyorlashda integratsiyalashgan fanlararo yondashuvga asoslanadi. Ushbu xizmatlar sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy sohalarda, jumladan maktabgacha ta’lim muassasalari, tuzatuvchi va inklyuziv guruhlarda amalga oshiriladi. Erta yordam bolaning kelajakdagi ta’limga tayyorgarligi va natijadorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Erta inklyuziya va uning uzluksizligini ta’minlash orqali o‘quv jarayoni mazmuni va shakllari ham o‘zaro bog‘lanadi. Inklyuziv ta’limning uzluksizligi ta’limning barcha bosqichlarida, boshlang‘ich, umumiy, o‘rta va keyingi ta’limni tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim diagnostika, korreksiya, kompensatsiya ishlarini integrativ olib borishni ko‘zda tutish bilan birga reabilitatsiya, kasbga yo‘naltirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash moslashtirilgan dasturlarni ham ko‘zda tutishi kerak degan xulosaga keldik. Shundagina bolalarning ta’limidagi uzluksizlikning funksional maqsadlari amalga oshadi. Ya’ni ta’limdan maqsad, bitiruvchilarning mustaqil hayotda muayyan kasb va faoliyat bilan band bo‘lishini ta’minlashdir. Bu maqsadga o‘quv muhitini xavfsiz, rivojlanish effektida tashkil etish orqali erishiladi. O‘z-o‘zidan tadqiqotimizning 2-konsepsiyasi shakllandi. Ya’ni xafsiz va rivojlanish muhiti uzluksiz ta’limda “bandlikka ko‘maklashish” dasturini amalga oshirish makonidir.



2-rasm.Erta inklyuziya va uning uzluksizligida “bandlikka ko‘maklashish” dasturlari yo‘nalishlari

Tadqiqot davomida shakllangan konseptual xulosalarga ko‘ra, inklyuziv ta’limning uzluksizligi ta’lim bosqichlarining (maktabgacha, boshlang‘ich, umumiy o‘rta va professional ta’lim) shunchaki ma’muriy ketma-ketligi emas, balki alohida ehtiyojli bolalarni ijtimoiy-professional muhitga integratsiya qilishning yaxlit didaktik va kompensatorlik tizimidir. Ushbu uzluksizlik zanjirida tibbiy-pedagogik diagnostika, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar hamda ijtimoiy-reabilitatsion qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining integrativ va moslashuvchan dasturlar asosida olib borilishi ta’lim inklyuziyasining funksional maqsaddorligini ta’minlaydi. Ya’ni, inklyuziv ta’lim paradigmasining yakuniy maqsadi alohida ehtiyojli bitiruvchilarning jamiyatda mustaqil hayot kechirishi, muayyan hayotiy kompetensiyalarni egallashi va munosib kasbiy faoliyat bilan band bo‘lishiga erishishdan iboratdir. Bu maqsadga faqatgina an’anaviy akademik qoliplardan voz kechib, o‘quv jarayonining mazmuni va shakllarini shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanish effekti asosida, Universal ta’lim dizayni tamoyillariga muvofiq loyihalashtirish orqali erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tizimli bog‘liqlik tadqiqotimizning ikkinchi muhim konsepsiyasini asoslashga xizmat qiladi: unga ko‘ra, inklyuziv ta’lim muassasalarida yaratilgan xavfsiz va rivojlanish effektiga ega o‘quv muhiti alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun «bandlikka ko‘maklashish» strategiyasini hayotga tatbiq etuvchi bosh ijtimoiy-pedagogik makon vazifasini bajaradi. Jismoniy-infratuzilmaviy, psixo-emotsional va raqamli-kommunikativ xavfsizlik kafolatlangan muhitdagina imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiylashuv intervali sezilarli darajada qisqaradi. Ta’lim muhitining bunday prognostik va adaptatsion barqarorligi bitiruvchilarning ijtimoiy lokatsiyasini xavfsiz ta’minlash bilan birga, ularning ijtimoiy mehnat bozorida raqobatbardosh sub’ekt sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz inklyuziv ta’limda xavfsiz rivojlanish muhitini innovatsion modellar va klasterli yondashuv asosida tashkil etish alohida ehtiyojli shaxslar bandligini ta’minlash orqali inson kapitalini rivojlantirish va Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada muvaffaqiyatli amalga oshirishning bosh strategik instrumentidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzieva U.Yu. 0-1 sinflarda zaif yeshituvchi o‘quvchilarni savodga tayyorlash va o‘rgatish metodikasi. Ped.fan.nom. ... diss. – T., 1994.
2. Sattorova M.A. Ta’lim klasteri muhitida ijtimoiy yo‘nalish talabalarining inklyuziv tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish. Ped.fan.fal.dokt.(PhD).... ... diss. - Chirchiq, 2022.
3. Shukurova D.Sh. Alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni inklyuziv sinfda ta’lim olish shart-sharoitlarini tashkil etish omillari // O‘zbekiston milliy unversiteti xabarlari jurnali. Toshkent, 2022 yil. 1/10/1 186-189 bet.
4. Выготский Л. С. Основы дефектологии: учебник для вузов. Спесиалная литература. – Санкт-Петербург: Лан, 2003. –С 81-82
5. Приходько О. Г. Система ранней комплексной помощи детям с ограниченными возможностями здоровья и их ро- дителям // Особые дети в обществе: сборник научных докладов и тезисов выступлений участников I Всероссийского съезда дефектологов. 26–28 октября 2015 г. М.: АНО «НМЦ «СУВАГ», 2015. С. 179–183.
6. Taxtiyarova.Sh.E. Bolalardagi nutq kamchiliklarini bartaraf etishning korreksion-logopedik jarayonini modellashtirish Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.-T.:2005